

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM
VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

Qo‘lyozma huquqida

UO‘K: 368.03:368.029(575.1)

ABIRQULOVA SOHIBJAMOL NORMUHAMMAD QIZI

**SUG‘URTA KOMPANIYALARI SAMARADORLIGINI OSHIRISHGA
QAYTA SUG‘URTANING TA‘SIRI**

08.00.07 – “Moliya, pul muomalasi va kredit” ixtisosligi

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy
darajasini olish uchun yozilgan**

DISSERTATSIYASI

Ilmiy rahbar: iqtisodiyot fanlari doktori (DSc),
dotsent H.A. Hakimov

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

	KIRISH.....	3
I bob	SUG‘URTA KOMPANIYALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	14
1.1-§.	Qayta sug‘urtaning mohiyati va uning sug‘urta tizimidagi ahamiyati.....	14
1.2-§.	Sug‘urta kompaniyalarining raqobatbardoshligini oshirishning ilmiy-nazariy asoslari.....	30
1.3-§.	Rivojlangan davlatlarda qayta sug‘urtani amalga oshirishning o‘ziga xos xususiyatlari.....	46
	I bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	60
II bob	SUG‘URTA KOMPANIYALARI FAOLIYATI SAMARADORLIGIGA QAYTA SUGURTANING TA’SIRINI TAHLILI.....	65
2.1-§.	O‘zbekistonda qayta sug‘urtani rivojlantirish usullari tahlili.....	65
2.2-§.	Sug‘urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligini oshirishda qayta sug‘urta mexanizmining ta’sirini baholashning ekonometrik tahlili..	80
2.3-§.	Qayta sug‘urta omillarining texnik rentabilikka ta’siri tahlili va sof foyda uchun prognoz qiymatlari.....	99
	II bob bo‘yicha qisqa xulosa.....	108
III bob	O‘ZBEKISTONDA SUG‘URTA KOMPANIYALARI RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYALARI..	110
3.1-§.	Moliyaviy risklarning sug‘urta kompaniyalari samaradorligiga ta’sirini qayta sug‘urta mexanizmlari orqali kamaytirish yo‘llari.....	110
3.2-§.	Sug‘urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta’minlashda qayta sug‘urta mexanizmidan samarali foydalanish istiqbollari.....	128
	III bo‘yicha qisqa xulosa.....	140
	XULOSA.....	143
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI.....	146
	ILOVALAR.....	152

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi globallashuv jarayonlari hamda iqtisodiyotning turli segmentlaridagi beqarorlik holatlari moliya tizimidagi xavf-xatarlarni boshqarish muhimligini ko'rsatmoqda. Bozor iqtisodiyoti sharoitida moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda va iqtisodiyotning turli sohalarida yuzaga keladigan tavakkalchiliklarni kamaytirishda sug'urta tizimi alohida ahamiyat kasb etadi. 2023-yil yakunlariga ko'ra, xalqaro sug'urta bozorining umumiy hajmi 7,1 trillion AQSh dollarini tashkil etgan (Swiss Re Institute, World Insurance Report, 2024)¹. Ushbu ko'rsatkich 2022-yilga nisbatan 3,4 foizga oshgan. Bu esa qayta sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashdagi hal qiluvchi rolini ko'rsatadi. Bunday statistik ko'rsatkichlar shuni anglatadiki, qayta sug'urta nafaqat alohida sug'urtalovchilarning risklarini taqsimlanishiga, balki global iqtisodiy barqarorlikning saqlanishiga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Qayta sug'urta operatsiyalarining murakkabligi va ularning moliyaviy oqibatlari butun moliya sektori barqarorligini ta'minlovchi strategik moliyaviy vosita sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Jahonda sug'urta risklarini boshqarish va qayta sug'urta mexanizmini takomillashtirish masalasi xalqaro miqyosdagi yetakchi ilmiy markazlar va oliy ta'lim muassasalarining ilmiy izlanishlarida alohida e'tibor qaratilayotgan yo'nalishlardan biriga aylangan. Xususan, sug'urta sohasidagi moliyaviy barqarorlik, risklarni diversifikatsiyalash, kapitalni boshqarish samaradorligi, shuningdek, qayta sug'urtaning institutsional va strategik roli bo'yicha fundamental ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Ammo mavjud ilmiy manbalar va tahlillar shuni ko'rsatadiki, hozirgi kungacha sug'urta kompaniyalari faoliyatida qayta sug'urtaning bevosita samaradorlikka ta'siri yetarli darajada o'rganilmagan. Jumladan, qayta sug'urtaning sug'urta kompaniyalari moliyaviy barqarorligi va operatsion samaradorligini ta'minlash, bu jarayonda kuzatiladigan o'zgarishlarni tadqiq etish bo'yicha chuqur ilmiy tahlillarga ehtiyoj katta.

¹ <https://www.swissre.com>

Yangi O'zbekiston iqtisodiyotini transformatsiya qilish va modernizatsiyalash, bozor munosabatlarini chuqurlashtirish va xorijiy investitsiyalarni jalb qilish jarayonida muhim bosqichni bosib o'tyapti. Mamlakatda keng ko'lamda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, bir tomondan, iqtisodiy o'sish sur'atlarini ta'minlayotgan bo'lsa, boshqa tomondan, moliyaviy tizimning barqarorligini mustahkamlash masalasini kun tartibiga olib chiqmoqda. Ayniqsa, moliyaviy xavflarni kamaytirish va iqtisodiy subyektlar uchun kafolatli himoya muhitini yaratishda sug'urta sektori alohida ahamiyat kasb etadi. Biroq mavjud amaliyot va amalga oshirilgan izlanishlar O'zbekistonda sug'urta tizimini yanada takomillashtirish, xususan, yangidan tashkil etilgan Milliy qayta sug'urta kompaniyasi faoliyatini samarali tashkil etishni taqazo etmoqda. Ma'lumki, aksariyat sug'urta kompaniyalari risklarni yetarli darajada taqsimlay olmayapti, yirik zararlarni kamaytirish yoki moliyaviy barqarorlikni ta'minlash imkoniyatlari esa cheklangan. Milliy sug'urta bozorining rivojlanishida bir qator muammolar mavjud. Jumladan, qayta sug'urta shartnomalari soni nihoyatda kam, qayta sug'urtalash operatsiyalarida amalga oshirishda mahalliy sug'urta tashkilotlarining ishtiroki ishtiroki past darajada va xorijiy qayta sug'urtalovchilar bilan hamkorlik sust yo'lga qo'yilgan. Shu sababli, sug'urta kompaniyalari ko'p holatlarda yuqori darajadagi risklarni o'z zimmasiga olishga majbur bo'lmoqda, bu esa ularning moliyaviy barqarorligiga va umumiy faoliyat samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bunday sharoitda qayta sug'urtaning sug'urta kompaniyalari faoliyatiga ta'sirini chuqur, amaliy va statistik tahlillar asosida o'rganish zarurati yuzaga kelmoqda.

O'zbekiston sug'urta bozorida so'ngi yillarda qator muhim islohotlar amalga oshirildi va bu yo'nalishda normativ-huquqiy baza sezilarli darajada mustahkamlandi. Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son «O'zbekiston — 2030» strategiyasini «Yoshlar va biznesni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida», 2023-yil 11-sentabrdagi PF-158-son «O'zbekiston-2030» strategiyasi to'g'risida»gi, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022—2026-yillarga mo'ljallangan Yangi